

Bobonazar Murtazoyev

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

TerDU, O'zbek adabiyotshunosligi kafedrası.

Abdullayeva Nilufar Ibragim qizi

o'qituvchi, TerDU, O'zbek adabiyotshunosligi kafedrası.

XORAZMSHOH OTSIZ VA RASHIDIDDIN VATVOT

Annotatsiya:Maqolada Otsiz Xorazmshoh va Rashiduddin Vatvot munosabatlariga doir voqealar qamrab olingan. Ular o'rtalaridagi ajoyib hodisalar Muhammad Avfiyning "Lubobu-l-albob" tazkirasida o'zining ma'lum miqdorda ifodasini topgan. Vatvotga doir ba'zi ma'lumotlarni Davlatshoh "Tazkirat-ush-shuaro" asari vositasida to'ldirdik.

Kalit so'zlar:Tazkira, tarix, shoh, vazir, muallif, olim, talqin, tarjima, ma'no, maqola, kitobxon, nashr, ustoz, til, ilmiy, izlanish, atama, asos, izhor.

Keywords:Tazkira, history, author, scientist, interpretation, translation, meaning, article, reader, publication, teacher, language, scientific, author, research, term, basis, magz , base, expression.

Annotasiya.V statye rassmatrivayetsya vopros vzaimootnosheniye Atsiza Xorazmshoxa i Rashiduddina Vatvata. Proisxodashiye sluchai mejdu nimi izobrajen v tazkire "Lubabu-l-albab" Avfi, ostalnymiye svedeniye ob Vatvate po polnili na osnoiye "Tazkirat-ush-shuaro"

Ключевые слова:Antologiya, istoriya, avtor, uchyonyy, interpretatsiya, tadjiskiy, smysl, statya, chitatel, publikatsiya, uchitel, yazyk, uchyonyy, avtor, issledovaniye, termin, osnova, yadro, baza, vyrajeniye.

Xorazmshoh Otsiz (1098–1156, hukmronligi 1127–1156) va Rashididdin Vatvot (1088–1182) tarix sahifalarida ismlari oltin harflar ila raqam etilgan shaxslar safida turishadi. Sulton Xorazmshoh Otsiz bilamizki, Anushteginiy Xorazmshoh lar (1077–1220) sulolasidan bo'lib, 1127–1156 yillar hukmronlik qiladi. Uning butun harakati saljuqiy (1040–1190)lardan ajralib chiqib, mustaqil davlat tuzishga qaratilgan, u bunga ma'lum darajada erishadi ham. Otsiz Xorazmshoh bu bilan o'zining bo'lajak avlodlariga kelajak imtiyozlarini ta'minlashga imkoniyat yaratgan edi. Bu borada Xorazmshoh Otsiz zikrida Muhammad Avfiy (1172–1241) "Lubob-ul-albob" (1221) tazkirasining beshinchi shoh shoirlar bobida Xorazmshoh Otsiz zikrida yozadi: "Uning davrida Xorazm podsholigi taxti ulug'vorlashdi, faxru g'ururli dovruq'i turli atrof iqlimlarga borib yetdi. U ilm ahlini himoyasiga oldi, san'atkorlarga, hunar ahliga e'tibor kuchaydi, natijada ularning bahosi qimmatlashdi, xaridorlari ko'paydi" (10–B.66).

Qizig'i shundaki, Muhammad Avfiy aynan "Lubob-ul-albob"ning Xorazmshoh Otsizga doir sahifalarida Rashididdin Vatvot xususida ham e'tiborli xabarlarini aytib o'tadi. Bu esa bizning Otsiz va Vatvot hayot yo'liga taalluqli taassurotlarimizni ancha boyitadi: "Imom Rashididdin Vatvot Xorazmshohlar xatlar devonining sohibi (boshlig'i) edi, shohga sodiq xizmati tufayli davlat marvarid shodasining gavhariga aylandi. Podshoh aksar vaqt u bilan suhbat qurishni, bazmlarda birga bo'lishni xush ko'rar, uni chin do'st sifatida o'ziga yaqin tutar edi. Rashid yozgan nomalar, maktublar, xatlar (arab va fors tillarida yozilgan) bitigi uning layoqatiga kafolatdir, shundan shohning unga hurmati cheksiz va ishqi baland edi, ular o'rtasida ajoyib so'zhatlar ko'p bo'lgan" (10–B.66).

"Lubob-ul-albob"ning Otsiz qismida Vatvotning Sulton Sanjar (1086 –1157; hukmronligi 1118–1157) ila munosabatlari ham qisman yoritiladi, zotan Vatvot o'z faoliyatini ilk bor Marvda – saljuqiylar saroyida boshlangan edi (10–B.67–68). Sulton Sanjarning saroy ahli Vatvotni har xil bo'htonlar ila yomon otliqqa chiqaradi, uning Marvdan Xorazm(Urganch)ga ketishiga zamin hozirlashadi. Sulton

Sanjar bu orada ko‘p o‘tmay Vatvotga maktub yo‘llab, uni Marvga qaytishga chorlaydi, “Shu munosabat ila Rashididdin ushbu qit‘ani yozgan ekan, qit‘a:

Agar badpoyast yakroni shoh,
Qumayti maro poi ham lang nest.
Chi o‘ oyad injo man onjo ravam,
Xudoyi jahonro jahon tang nest.
Mulki shahriyor astu shohi jahon,
Guriz az chunin podsho nang nest(10–B.66–67).

Mazmuni:

Gar shoh oti bo‘lsa ham behad zotdor,
Mening mingan otim ham emas cho‘loq.
U kelsa bu yon, men ketaman u yon,
Xudoning jahoni tor emas, biroq–
Mulk shahriyordir, bilsang, jahondor shoh,
Ayb emas bu xil shohdan qochsang yiroq.

Ko‘rinadiki, birgina Otsiz qismida Vatvotning hayot yo‘liga daxldor ayrim ta’sirli voqealarga ishoralar mavjud ekan. Bu esa Vatvot hayot yo‘lini yoritishda asqotishi muqarrar hodisalar sirasiga taalluqlilik kasb etadi. Anglashiladiki, Sulton Otsiz va Rashididdin Vatvotning o‘zaro munosabatlari bog‘liq hodisalar ularning tarjimai hollarining kemtik o‘rinlarini to‘ldirish(“Lubob-ul-albob” misoli)da asqotadi.

“Lubob-ul-albob”ning Sulton Otsiz qismida Vatvot bilan shoh o‘rtasida bo‘lib o‘tgan latifalar ancha e‘tiborli, uni Avfiy kimdan eshitganigacha aytib o‘tadi. Muhammad Avfiy Xorazmda bo‘lgan kezlari Muhammad Xorazmshoh (vafoti 1221) hukmronligi (1200–1220) davri dabirlaridan Imodiddin Dabir uyida izzatli mehmon bo‘ladi. O‘shanda Imom Dabirdan Sulton Otsiz va Rashididdin Vatvot o‘rtasida ro‘y bergan ajoyib rivoyatlardan birini miriqib eshitadi, Avfiy bu xil dilkash hikoyatlarni to‘plab borgani aniqdir, bular “Lubob-ul-albob”ning ko‘pgina o‘rinlarida zikrini topgan. Hikoya qilinishicha, qish fasli izg‘irin tunda Sulton Otsiz saroy ahlini jamlab katta bazm uyushtiribdi, qarasa yig‘inda Vatvot yo‘q emish, uni da‘vat etishibdi. Vatvot tashrif buyurgach, Sulton Otsiz so‘rabdi:

Suyuq ovqat ichasanmi yoki tovuq go‘shni yeysanmi? Ular fors tilida so‘zlashgan, Rashid Vatvotga Sulton Otsiz murojaatida tagzaminli savol mavjud: Murg‘ mexo‘ri yo obiy? Bu o‘rinda murg‘ – qush, tovuq, umuman, parranda, obiy – suv, suvli, muz, yax, shuningdek, xarob, xarobalik, munosabatlarning darz ketishi, obro‘sizlik demakdir. Vatvot javoblarida ham so‘z o‘yini bor, murg‘obiy – o‘rdak, lekin tag zamirida ancha ma‘no-mazmun jamuljamdir. Vatvot demoqchi bo‘lgan murg‘obiy – o‘rdak suvda suzuvchi, suv parrandasi, ya‘ni ey shohim, sen ichgan sharoblar ko‘lga aylanibdi. Men shu ko‘lda o‘rdakdek suzmoqchiman, bu hol meni ham mast va ham shodmon aylaydi, xaroblik qutqaradi, ana sizga bor-yo‘q haqiqat. Bazmi oxirlab, mehmonlar taraqala boshlaydi, shohning ko‘zini uyqu bosadi, Vatvot ham ketar mahal bo‘lganini anglab, o‘rnidan sekin qo‘zg‘aladi, buni sezgan shoh:

- Qayerga ketayapsan? – dedi.
- Borib gul (sharob) va sog‘ar (qadah) olib kelmoqchiman.

Qo‘zg‘almay o‘tir! – dedi shoh. – Sen men uchun ham gul (may)san va ham sog‘ar (qadah)san, ya‘ni ham aybimsan va ham aybimni yashiruvchimsan. Boisi may o‘z hidi, isi, ifori ila o‘zini o‘zi oshkor aylaydi, sog‘ar – qadah u – mayni yashiradi, aybini pinhon aylaydi. Ana sizga so‘z o‘yini – lutf – askiya, bu xil g‘aroyib gurunglar Xorazmshoh Otsiz va shohning devoni sohibi Rashididdin Vatvot o‘rtasida ko‘p bo‘lgan, Avfiy yakun yasaydi: “Ular o‘rtasida bu xil go‘zal suhbatlar va dilkusho bazmlar ko‘p bo‘lgan, yuqoridagi lutfona so‘z o‘yinlari o‘sha gurunglardan bir shingil, xolos. Har kimning tab‘i-zehni lutf (askiya)dan bahramand bo‘lsa, bu so‘z o‘yinlarining ma‘no-mag‘zini tez fahmlaydi” (10–B.67).

Aftidan Sulton Otsiz va Rashididdin Vatvotning o‘zaro suhbatlaridagi hazil-huzullari o‘z zamonida ancha mashhur bo‘lgan ko‘rinadi, ushbu diltortar gurunglar, hangomalar maxsus jamlanib kitob holiga keltirilgan ko‘rinadi. Chunonchi Dailatshoh Samarqandiy (1435–1495)ning “Tazkirat-ush-shuaro” (1485) tazkirasining Rashididdin Vatvot bobida “Lubob-ul-albob” sahifalaridagi singari Xorazmshoh Otsiz va Vatvot latifalariga ham e‘tibor qaratiladi. “Tazkirat ush-shuaro”dan matnni to‘kis

keltiramiz: “Naql qiladilarki, bir kuni ulamo Xorazmda Xorazmshoh Otsizning majlisida munozara qilar edilar. Rashid Vatvot ham o’sha majlisda hozir va munozara, bahs va tez zamonlik qilur edi. Xorazmshoh Otsiz ko’rdiki, bu odam shunchalik kichik jussa bo’la turib behad va beandoza bahs qilayotir. Rashid Vatvotning oldida bir davot (siyohdon) turgan edi, Xorazmshoh zarofat yuzasidan dediki, “davotni ko’taringlarchi, uning orqasida turib gapirayotgan kim ekan?” Rashid Vatvot davotni olib o’rnidan dast turdi va bunday dedi: “Kishi, ikki narsasi: qalbi va tili bilan inson hisoblanadi”. Rashid Vatvotning fazli va balog’ati Xorazmshoh Otsizga ma’lum bo’ldi. Shundan boshlab uni izzatu ehtirom qilar, ko’p in’omlar bilan bahrlantirar edi. Uning (Rashidning) Xorazmshoh Otsiz madhida aytgan pokiza qasidalar bor edi” (–3.–B. 18–21; 12.–B. 46–50). Rashididdin Vatvot Xorazm zaminiga qadam ranjida qilgach, umrining so’nggi damigacha shu yurtda qoladi, uning qabri Jurjoniya shahridadir(3–B.21).

Xorazmshoh Otsiz va Rashididdin Vatvot, ya’ni shoh va sohibi devon (to’g’rirog’i vazir) xususida lutfona va ibratomuz voqealar shu qadar ma’lumu mashhurki, ta’rifu tavsifi beqiyosdir. Xorazmshoh Otsiz hatto Rashididdin Vatvotning Xorazm davlati oldidagi xizmatlarini chinakamiga e’tirof etib, unga “Sa’d ul-mulk” – “Mamlakat baxti” unvonini beradi. Bu yuksak nom, ulug’ va qutlug’ unvon Vatvotning Xorazm davlatiga qo’shgan xizmati evaziga berilgan ulkan e’tirof edi (1–S.67–70). Rashididdin Vatvot va Adib Sobir Termiziy (1078–1147)ning o’zaro yaqin munosabatlari ayni Xorazmda boshlangan, to’g’ri bu ikki allomai zamon Marvda Sulton Sanjar saroyida uchrashganliklari ma’lum. Ularning she’rlar devonida Xorazmshoh Otsizga bag’ishlangan qasidalar mavjud bo’lib, ularni alohida o’rganish lozim, biz goho qasidalarini faqat maqtovdan iborat deb bilamiz, vaholanki, qasidalarda tarixiy voqealar ham o’z aksini topishi br haqiqatdir. Hatto Muhammad Avfiy “Lubob-ul-albob” ikkinchi jildining to’qqizinchi bobi Adib Sobir Termiziy qismida shoirning eng zo’r deb e’tirofini topgan Xorazmshoh Otsiz haqidagi qasidasini to’kis keltiradi. Adib Sobir Termiziy “Devoni”ning tarkibida Xorazmshoh Otsizga bag’ishlangan yigirmata qasida o’rin olgan, boisi shoir Xorazmda Sulton Sanjarning elchisi sifatida faoliyat olib borgan. Shundan Xorazmshoh Otsiz saroyi bilan yaqin aloqada bo’lgan, saroy bazmlarida bevosita ishtirok etgan, to’g’ri shoh dargohi va uning o’zi haqida ham ma’lumotlar to’plagan. Oxir-oqibat Adib Sobir Termiziyning taqdiri nima bo’lgani ma’lum, xulosa shuki, har ikki taraf – shoh ham, shoir ham o’z vazifasini bajargan deyishdan nariga o’tolmaymiz!

Xorazmshoh Otsizning ham she’rlar devoni borligini bilamiz, lekin taassuf ushbu devon bizning zamongacha yetib kelmagan. Muhammad Avfiy “Lubob-ul-albob”ning she’r yozgan shohlar, tazkira beshinchi bobining Alouddin G’uriyga bag’ishlangan sahifasida Xorazmshoh Otsiz devoni borasida ham ma’lumotlar berib o’tadi. Muhammad Avfiy xabariga ko’ra, “Uning (Alouddin G’uriyning) podshohona va mulkona so’lim she’rlari bor, she’rlari jamlangan devoni mavjud. Devon Sulton Otsiz devoni ila bir jild (kitob)da muqovalangan va u devonni Samarqand shahri Sarduobdor kutubxonasida o’qib ko’rgan edim” (10–B.70). Demak Xorazmshoh Otsiz ham qalami o’tkir shoirlar safida turadi, “Lubob-ul-albob”da uning ijod bisotidan berilgan she’riy namunalar buning jonli isbotidir.

Ta’kidlangani kabi Xorazmshoh Otsiz va Rashididdin Vatvot bir-biriga shu darajada uyqash, bu ularning tabiatiga ham xoslik kasb etadi, ular o’zaro qattiq hazilkashdirlar. Atrofdagilar Vatvotning past bo’yli tufayli uni oshqovoq (kadi, oshkadi)ga o’xshatar ekan, aslida Vatvot arab tilida ko’rshapalak degani, boshida sochi ham yo’q ekan. Xuddi shu haqda Xorazmshoh Otsiz bir hazilomuz ruboiy bitgan ekan:

Az fasli sarat bar osmon mesoyad,
Z-on bar sari tu mo’y hama barnaoyad.
Moro sari tu chu dida dar meboyad,
Bar dida agar mo’y naboshad shoyad.

Mazmuni:

Ehson to’la boshing osmon uzra soyabon,
Shundan boshingda bir tola sochdir gumon.
Sening kal boshingdan menga nima foyda,
Soch o’smas, ko’z yoshi bo’lsa hamki ummon.

Shu tariqa yuqoridagi ruboiydan bo‘lak Xorazmshoh Otsiz qalamiga mansub tag‘in bir qit‘a va ikki dona ruboiy keltiriladi, ularning bari yukasak saviyadagi holati ila ajralib turadi (10–B.67).

Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat-ush-shuaro”ning Vatvot bobida Sulton Sanjar va Xorazmshoh Otsiz bog‘liq Hazorasb muhoribasi haqida hikoya qiladi. O‘shanda Xazorasb qamali muddati ancha cho‘ziladi, ikki o‘rtada bo‘lib o‘tgan bir voqea hikoya etiladi, Sulton Sanjar tarafidan shoir Anvariyy (1090–1169), Xorazmshoh Otsiz tomonidan shoir Vatvot voqeaga mos ruboiy yozishadi. Har ikki taraf ham bu ruboiylarni dastlab Sulton Sanjar shoiri Anvariyyning ruboiysini yoy kamoni bilan Hazorasb qal‘asi tomon yo‘naltirishadi:

Ey shohi jahon mulki jahon hasb turost,
V-az davlatu iqboli shahi kasb turost.
Imro‘z ba yak hamla Hazorasb bigir,
Fardo Xorazmu sad Hazorasb turost (5– S.664).

Mazmuni:

Shoho, jami mulki zamin zot seniki,
Iqbol, jahon davlati bot-bot seniki.
Bugun bir hamlada Hazorasb seniki,
Erta Xorazmu yuz minglab ot seniki.
(Tarjimalar erkin bo‘lib, ularni o‘zimiz bajardik).

Bu ruboiy keltirilgan boshqa manbalarda aynan matnda turlichaliklarni kuzatdik (1–S. 67–70), (7–S.36), biz ruboiy matnini Anvariyy devonining Tehron nashridan oldik va uning sahifasini o‘sha o‘rinda ko‘rsatdik. Ruboiy mazmuni ila tanishgan Xorazmshoh Otsiz va uning atrofda qilari qarshi javob bitishni Vatvotga topshirishadi:

Shoho, ki ba jomat mai sof ast, na durd,
A‘doi turo zi g‘ussa g‘am boyad xurd.
Gar xasmi tu, ey shoh, buvad Rustami gurd,
Yak xar zi Hazorasb natovanad burd (8–S.37).

Mazmuni:

Shohim, joming to‘la sof may, yo‘q bunga shak,
G‘animlar g‘am-g‘ussada go‘yo jonsiz hashak.
Ixtiyoringda tursa-da Rustami gurd beshak,
Hazorasbdan olib ketolmas bir eshak.

Ayni shu voqealar Alouddin Atomalik ibn Muhammad (1225–1283)ning “Ta‘rix-i jahonkusho” ((Jahon fotihi tarixi)) asarida to‘liq va mukammal o‘z aksini topgan (6–B. 275–284), “Turkman adabiyoti tarixi”da ham ma‘lum ishoralari mavjud (13–S. S.106 – 107). Aytilishicha, Vatvot ruboiysining mazmuni Sulton Sanjarni junbushga soladi, g‘azablangan shoh Hazorasb egallangach, Vatvotni yetti pora qilishini aytadi. Zotan Vatvotning ilgari yozgan she‘rlarida ham Sulton Sanjar qattiq tanqid ostiga olingan:

Otsiz g‘oziy ba taxti mulk baromad,
Davlati saljuqi oli o‘ ba saromad (2.–B.20).

Mazmuni:

Taxti mulkka keldi Otsiz – ul g‘azabkor nayzaboz,
Topdi Saljuq davlativu xonadoni inqiroz.
(S.Rahmon tarjimasi)

Qisqasi Hazorasb saljuqiylar tomonidan egallanadi, chunki Otsiz Xorazmshoh qamal payti ancha qiynaladi va qal‘ani tashlab ketishga majbur bo‘ladi. Vatvot asirga tushadi, u bir yo‘lini topib, oldindan o‘ziga tanish Sulton Sanjarning devonbegisi¹ Muntahabuddin Bade‘ga murojaat qilib, o‘lim jazosini bekor qilishga erishadi. Muntahabuddin aytilishicha, imkon topib Sulton Sanjarga Vatvotning zaif va g‘oyat jussasi mo‘jaz bir odam, uni yetti pora emas, balki ikki bo‘lak qilsa ham bo‘lishini aytishga jazm

¹ Девонбегі, девон бошлиғи аслида вазир хисобланган.

etadi, ana shu hazil-huzullar sabab (bois) Rashiduddin Vatvotning hayoti saqlab qolinadi. Bu voqealar she'riyatning kuchi-qudratini hayotiy chinakam hazilning kuvvatini anglatadi, qolaversa, Anvariyl ruboiysi Hazorasb qal'asiga yoyda otilganidek, Vatvot ruboiysi ham qal'a tashqarisiga kamonda otiladi. Muntahabuddin ismi "Ta'rixi jahonkusho"da Muntajabuddin shaklida beriladi, hatto "Lubobu-l-albob" tazkirasida ham Muntajabuddin tarzida beriladi (10–S.126).

Otsiz Xorazmshoh va Rashiduddin Vatvot o'rtasida ko'plab mutoyibalar bo'lib o'tgan, bular tarix zarvaraqlariga muhrlangan, shunday hodisalardan biriga e'tibor qarataylik. Bir kuni Otsiz o'z odati bo'yicha Vatvotni huzuriga da'vat etadi va Muhammad Roduyoniy (XI asr) qalamiga mansub she'riyatning ilmi bade'ga taalluqli forsiy tildagi ilk asar "Tarjimon-ul-balog'a" (1100)ni uning qo'liga tutqazadi. Otsiz ayni shu kitobga monand bir asar yaratishni Vatvotga maslahat ko'radi, ana shu ajoyib voqeaning natijasi o'laroq jahonga mashhur "Hadoiq us-sehr fi daqiq ush-she'r" (Nazm go'zalliklarining sehrli – jannat bog'lari) asari dunyoga keladi (8–C.38). Ushbu tengsiz ilmiy asar asrlar osha, hatto hozirgacha she'r ilmiga doir kitoblar orasida o'zining tanholigini saqlab kelmoqda. Endi o'z-o'zidan bir savol tug'iladi, shoh Otsiz Xorazmshohning boshqa shug'ullanadigan ishi yo'qmidi, ko'rayapsizmi, birgina shoh ishorasi bilan hozirgi avlodlargacha bahra beradigan qimmatbaho asar dunyo yuzini ko'rgan ekan.

ADABIYOTLAR:

1. Adabiyoti forsi to'chik dar asrhoi XII–XIV. Qismi yakum.– Dushanbe: Nashriyoti "Donish", 1976. – 348 sah. (Adib Sobiri Tirmiziy.–S.62–66; Rashididdin Vatvot–S.67–70; (Muntahabuddin –S. 67); Anvariyl – S. 99–119).
2. Amir Davlatshoh bin Alouddavla Baxtishoh al-G'oziy as-Samarqandiy. Tazkirat-ush-shuaro. Ba sa'i va ehtimomi va tashihi Edvard Braun.– Tehron: Asotir, 1383.–621 sah. (Muntaxabuddin – S.91).
3. Ahmedov B.A. Davlatshoh Samarqandiy. –Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1967. – 86 b. (Avhaduddin Anvoriyl (asli Anvariyl –B.M.)–B. 17; Rashid Vatvot –B.18–21; Adib Shahobiddin Sobir (asli Adib Shihobiddin –B.M.)–B.21–22).
4. Devoni Adib Sobir Tirmiziy. Muallif Ahmad Abdullayev.– Tehron: Intishoroti baynalmilali Alhudo, 1380. – 396 sah.
5. Devoni Anvariyl. Bo muqaddimai Sa'id Nafisiyl. – Tehron:
6. Mu'asasai intishoroti "Nigoh", 1376. – 744 sah. (–S.664).
7. Juvayniyl, Alouddin Atomalik. Tarixi jahonkusho (Jahon
8. fotihi tarixi). Nazarbek Rahim tarjimasi. – Toshkent:
9. MUMTOZ SO'Z, 2015. – 504 b. (–B. 275–284; Muntajabuddin
10. –B.279–280).
11. 7. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. Oliy va o'rta o'quv
12. yurt talabalari uchun qo'll. K.I.– Toshkent: "O'qituvchi", 1997. –
13. 528 b. (– B.214–234).
14. 8. Mirzozoda Xoliyl. Ta'rixi adabiyoti to'chik (Az davrai qadim
15. to asri XIII). Kitobi I(II). – Dushanbe: "Maorif" 1989. – 424 sah. (Muhammad ibni Umari Roduyony va kitobi "Tarjimon-ul-balog'a"-i o' –S.28–29; Rashidi Vatvot (1090–1183) va "Hadoiq us-sehr fi daqiq-ish-she'r"-i o' –S.35–38; Muhammad Avfiyl va tazkirai o' "Lubob-ul-albob"– S.38–42; Adib Sobir Tirmiziy–S.59–65; Anvariyl (1090–1188)–S.65–73).
16. Mir G'ulom Muhammad G'ubor. Afg'oniston dar masiri torix. (jildi avval va duvvum). – Kobul: Intishoroti baynalmilalii sarvari saodat, 1394. Jildi yakum – 110 sah.; jildi duvvum – 302 sah.

17. Muhammad Avfiy Buxoriy. Lubobu-l-albob (Ma'nolarning mag'zlari). Xomaki nashr. Fors tilidan tarjima va izohlar muallifi Bobonazar Murtazoyev. –Toshkent: “MUMTOZ SO'Z”, 2022.–424 b.
18. Muhammad bin Umaru-r-Roduyoniy. Tarjimonu-l-balog'a. Ba tashihu ehtimomi profussur Ahmad Otash. Va intiqodi ustod Maliku-sh-shuaro Bahor. Chopi duvvum. – Tehron: Shirkati Intishoroti Asotir, 1362.–263 sah.
19. Samarqandiy, Davlatshoh. Shoirlar bo'stoni (“Tazkirat ush-shuaro”dan). Fors-tojik tilidan B.Ahmedov tarj.; She'rlarni S.Rahmon tarj. qilgan. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. – 224 b. (Avhadiddun Anvariyy. –B.42–45; Rashididdin Vatvot. – B.46–50; Adib Sobir Termiziy.– 51–52).
20. Туркмен едебиѳатынын, тарыхы. I том. Орта асырлар доvрунин, едеби мѳрасы. – Ashgabat: “Ылым” neshiryaty, 1975. – 480 sax. (–S. 103–119. Juvayniyy –S.106; Rashid – S.107).
21. Ensiklopediyai sovetii tochik. Childi I.–Dushanbe: Sarredaksiyai ilmiy ensiklopediyai sovetii tochik, 1978. –672 sah. (Avfiy Nuruddin Muhammad ibni Tohir ibni Usmoni Buxoroy, tavalludi 1172–76.; vafoti noma'lum.–S.54; Adib Sobiri Tirmiziy Shihobuddin ibni Ismoil, taqriban 1078–1147.–S.74; Anvariyy. Avhaduddin Aly ibni Muhammad ibni Ishoqi Abevardy 1128–1190.–S.177).
22. Ensiklopediyai sovetii tochik. Childi VI. – Dushanbe: Sarredaksiyai ilmiy ensiklopediyai sovetii tochik, 1986. –640 sah. (Rashidi Vatvot. Sa'dulmulk Rashiduddin Muhammad ibni Muhammad Abduchalili Balxy. 1087–1178/ 83. – S.222–223; Roduyony. Muhammad ibni Umar. “Tarchumon-ul-balog'a”. –S. 385).
23. 16. Ensiklopediyai sovetii tochik. Childi VII.–Dushanbe: Sarredaksiyai ilmiy ensiklopediyai sovetii tochik, 1987. – 640 sah. (“Tarchumon-ul-balog'at” Muhammad ibni Umar Roduyony, ki solhoi 80-umi asri I I ta'lif shudaast. Manbai on asari Marg'inony “Mahosin -ul-kalom” ba zaboni araby bud. –S.264.).
24. 17. Ensiklopediyai sovetii tochik. Childi VIII. –Dushanbe: Sarredaksiyai ilmiy ensiklopediyai sovetii tochik, 1988. – 592 sah. (Alouddin Atomalik ibni Bahouddin Muhammad. 1225–1258. – S. 501).